

20-Fevral, 2026-yil

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA ANEMIYA RIVOJLANISHIGA
OLIB KELUVCHI OMILLAR VA ULARNI ANIQLASHDA NIMALARGA
AHAMIYAT BERISH KERAK**

Marufova Mohigul O‘ktamovna

Jomboy sog‘liqni saqlash bo‘limi pediatri

Ruziyeva Zilola Shavkatjonovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi

Mansurova Mushtariybonu Samandarovna

Qarshi davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalarda anemiya sabablari, tashqi va ichki omillar ta’siri hamda bartaraf etish usullari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *anemiya, tashqi va ichki omil, ovqatlanish ratsioni,alimantar animeya, b12 vitamini, b9 folat kislota,turli xil yuqumli kaslliklarga chalinishga moyillik,temir yetishmovchiligi.*


Anemiya nima?

Anemiya (yunoncha an – inkor qo‘shimchasi va haima – qon), kamqonlik – qonda [eritrotsitlar](#) soni va gemoglobin miqdorining kamayishi, sifatining o‘zgarishi bilan kechadigan kasallik. Anemiyaga qon yaratilish jarayonining buzilishi, asosiy qon yaratuvchi to‘qima – ko‘mikning o‘z funksiyasini yetarli bajara olmay qolishi sabab bo‘lishi mumkin. Temir va vitamin B12 yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan anemiya birmuncha keng tarqalgan. Oz-ozdan uzoq vaqt qon ketib turganda me‘da va o‘n ikki barmoq ichak yarasi kasalligida ham ko‘pincha anemiya kuzatiladi. Bolalardagi kamqonlik turli sabablarga ko‘ra rivojlanadi. Ota-ona sinchkovlik bilan ushbu kasallikka nima turtki bo‘lganini aniqlashi kerak. Anemiya – tashqi va ichki, nasliy va orttirilgan, homiladorlik va tug‘ilgandan keyingi, patologik va asosiy omillar asosida yuzaga keladi. Ayolning homiladorlik davridagi kamqonligi bolaga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Achinarlisi, homilador ayollarning temir moddasiga bo‘lgan talabining ikki karra ortishi oqibatida kelib chiqadigan anemiya soni katta ko‘rsatgichlarni ko‘rsatadi. Bolalar uchun anemiya xavfli kasallik sirasiga kiradi. Sababi bola kun sayin o‘sadi va ma’lumki o‘zining “zaxiralari” kam bo‘lsa, rivojlanishdan orqada qolishi mumkin. To‘yib ovqatlanmaslik, vitamanga boy mahsulotlarni iste’mol qilmaslik ham anemiyaga sababchi bo‘ladi. Organizmda gemoglobin darajasining uzoq vaqt past bo‘lishi bolada gipoksiya ya’ni kislorod yetishmovchiligiga olib keladi. Natijada a’zolar va to‘qimalar ziyon ko‘radi. Anemiya tufayli bolalar jismoniy va intellektual rivojlanishdan orqada qolishlari mumkin. Qolaversa, surunkali va yuqumli kasalliklarga moyil bo‘ladi..

Anemiya tashxisini qo‘yish uchun qanday tekshiruvlar o‘tkaziladi?

20-Fevral, 2026-yil

— Bolada kamqonlik belgilarini sezgan ota-ona, eng avvalo, qon tekshiruvlarini amalga oshirishi zarur. Qondagi eritrotsitlar va gemoglobin sonining ko‘rsatkichlari orqali tashxis qo‘yiladi. Gemoglobin miqdori 110 g/l dan eritrotsitlar $3,5 \times 10^{12}$ g/l dan kam bo‘lsa, anemiya tashxisi qo‘yiladi. Bu ko‘rsatkich anemiyaning yengil darajasiga tegishli. O‘rtacha anemiya quyidagi ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi: gemoglobin 90 g/l dan kam, eritrotsitlar $2,5 \times 10^{12}$ g/l gacha, og‘ir darajadagi kamqonlikda esa 70 g/l dan kam, eritrotsitlar $2,5 \times 10^{12}$ g/l dan kam bo‘ladi. Bolada kamqonlik aniqlanganda nafaqat gematolog, balki gastroenterolog, nefrolog va pediatrlarga ham murojaat qilish hollari uchraydi.



— Kamqonlikni davolash davrida nimalarga ahamiyat qaratiladi?

— Kamqonlikni davolashning bosqichlari to‘liq shifokor nazorati ostida o‘tishi lozim. Agar bolada anemiyaning yengil ko‘rinishi kechayotgan bo‘lsa, temir moddasiga boy bo‘lgan ovqatlar va qo‘shimcha vitaminlar beriladi. Takroriy kamqonlik yuzaga kelmaslik uchun ushbu jarayonni to‘xtatmaslik zarur. Ratsionda mol go‘shti jigari, dukkakli ekinlar, dengiz mahsulotlari, yangi sabzavot va mevalar, ko‘katlar o‘rin olishi kerak. Temir preparatlari va vitaminlari ko‘rsatilgan dori-darmonlarni shifokor tayinlaydi.

Kasallikning belgilari va o‘z vaqtida davolanmasa, qanday asoratlarga olib keladi?

Anemiya ko‘plab a‘zolar va tizimlarga ta‘sir qiladi. Ilk belgilar terida paydo bo‘lib, oqarib mayinlashadi. Tirnoq va sochlar mo‘rtlashib, yorqinligini yo‘qotadi. Tez-tez til yallig‘lanishi, yuzaki yaralar paydo bo‘lishi mumkin. Kamqonlik, asab tizimiga ham ta‘sir qiladi. Sababi kamqonlikda quloqda shovqin paydo bo‘ladi va bosh aylanishi kuzatiladi. Anemiyaning eng yorqin belgisi– doimiy charchoqlik va behollikdir. Eng yomoni 1 yoshgacha bo‘lgan bolalarning rivojlanishi tengdoshlarinikidan ancha orqada qoladi. Og‘irroq ko‘rinishlarida hatto hushdan ketishi va yuragi tez-tez urishi mumkin. Sababi kamqonlik qon bosimining pasayishiga ham sabab bo‘ladi.

Xulosa.

20-Fevral, 2026-yil

Maktabgacha yoshdagi bolalarda anemiya rivojlanishi ko‘p omilli bo‘lib, uning asosiy sabablari orasida noto‘g‘ri va muvozanatsiz ovqatlanish, temir tanqisligi, tez-tez uchraydigan yuqumli kasalliklar hamda ichak parazitlari muhim o‘rin tutadi. Anemiyaning erta bosqichda aniqlanishi bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Tashxis qo‘yishda gemoglobin darajasi bilan birga ferritin, eritrotsitlar soni va rang ko‘rsatkichlarini baholash zarur. Shuningdek, bolaning ovqatlanish odatlari, ijtimoiy sharoiti va surunkali kasalliklar mavjudligini inobatga olish lozim. Profilaktika choralari sifatida temirga boy mahsulotlarni ratsionga kiritish va davriy tibbiy ko‘riklarni o‘tkazish tavsiya etiladi. Ushbu yondashuvlar bolalarda anemiya asoratlarini kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). Worldwide prevalence of anaemia 1993–2005. Geneva: WHO, 2008.
2. UNICEF. The State of the World’s Children. New York: UNICEF, 2020.
3. Nelson Textbook of Pediatrics. 21st ed. Philadelphia: Elsevier, 2020.
4. DeMaeyer E., Adiels-Tegman M. The prevalence of anaemia in the world. World Health Statistics Quarterly. 1985;38(3):302–316.
5. Hoffbrand A.V., Moss P.A.H. Essential Haematology. 7th ed. Wiley-Blackwell, 2016.
6. Kliegman R., et al. Iron deficiency anemia in children. Pediatrics. 2015;136(4):e1015–e1026.
7. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi. Bolalarda temir tanqisligi anemiyasini oldini olish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2019.
8. Baker R.D., Greer F.R. Diagnosis and prevention of iron deficiency and iron-deficiency anemia in infants and young children. Pediatrics. 2010;126(5):1040–1050.